

O‘ZBEKISTONNING JAXONGA TURIZM MAMLAKATI SIFATIDA OCHILISHI

Juraqulova Farangiz Turaqul qizi

Nizomiy nomidagi TDPU 4-bosqich talabasi

Siddiqov Husan Bashir o‘g‘li

Nizomiy nomidagi TDPU 2-bosqich talabasi

ANNOTATSIYA

Ushbu O‘zbekistonning jaxonga turizm mamlakati sifatida ochilishi hamda turizm sohasida erishilayotgan yutuqlar, muamolar va istiqbollari haqida qisqacha ma’lumot beriladi.

***Kalit so‘zlar:** turizm, sayyoh, UNESCO, Turistik mahalla, Turistik shaharcha, YUNESKO, buyuk ipak yo‘li, o‘zbekturizm.*

O‘zbekistonning turizm sohasida ilgari bormoqda. Hatto, Yevropa mamlakati aholisining hech bo‘lmaganda 70 % aholisi O‘zbekistonda kelishga oshiqadi. Jahon sayyohlik tashkilotining statistik ma’lumotlariga ko‘ra, 2019 yil yakunlariga ko‘ra, O‘zbekiston turizm sanoati eng tez rivojlanayotgan davlatlar beshligidan joy oldi¹. O‘zbekistonga kelayotgan sayyohlar soni yil sayin ortib bormoqda: 2005-yilda O‘zbekistonga tashrif buyurgan sayyohlar soni dunyoning 117 davlatidan 240 ming kishini tashkil etgan bo‘lsa, 2017-yilda O‘zbekistonga 2,5 milliondan ortiq sayyoh tashrif buyurgan. 2018-yilda sayyohlar soni 5,3 million kishini tashkil etgan, shundan 5 millioni MDH davlatlaridan, 325 ming nafari uzoq xorijdan kelgan². Har yili kuzda O‘zbekistonda Xalqaro turizm yarmarkasi o‘tkaziladi. Yaqinda 140 dan ortiq davlatlar

¹ Узбекистан вошел в список самых быстрорастущих стран по туризму. Gazeta.uz. [Электронный ресурс]. URL: <https://www.gazeta.uz/ru/2020/02/04/tourism> (дата обращения: 10.07.2022).

² https://uz.wikipedia.org/wiki/O‘zbekistonda_turizm.10.10.2022

ishtirokida Samarqandda bo‘lib o‘tgan Butunjahon turizm tashkiloti Bosh Assambleyasi sessiyasi mintaqamiz sayyohlik salohiyatiga butun dunyo e‘tiborini jalb etish borasida tarixiy voqea bo‘ldi. Bugungi kunda Tashkilot makonida UNESCOning 90 ga yaqin Butunjahon merosi obyektlari joylashgan bo‘lib, mamlakatlarimizga har yili salkam 80 million xorijiy sayyohlar tashrif buyurmoqda¹.

Bugungi kunda aholi o‘rtasida turizmni rivojlantirishga olib keluvchi “Turistik shaharcha”, “Turistik mahalla” va “Turistik shaharcha” maqomiga ega bo‘lgan aholi punktlari restrini kengaytirish vazifasi dolzarblik cho‘qqisida turibdi. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 13- avgustdagi PF-5781-son qaroriga muvofiq, “turist” maqomiga ega bo‘lgan hududlar ustuvor tartibda davlat dasturlari amalga oshiriladi. Bunday davlat dasturlari doirasida ularning infratuzilmasini yaxshilash ishlari olib borilmoqda². O‘zbekistonda sayyohlarning xavfsiz sayohatiga katta e‘tibor qaratilmoqda. Fransiyaning Insurly³ portalida e‘lon qilingan 2020 yil uchun turistlar xavfsizligi reytingida O‘zbekiston dunyoning 180 ta davlati orasida 46-o‘rinni, MDH davlatlari orasida esa 1-o‘rinni egalladi⁴. O‘zbekiston Respublikasi Turizm vazirligi ma‘lumotlariga ko‘ra, 2021-yilning 9 oyi davomida mamlakatimizga 1,2 million xorijiy sayyoh tashrif buyurgan, turizm xizmatlari eksporti esa 273 million dollarni⁵ tashkil etgan. 2016-yil dekabr oyi boshlarida davlatimiz rahbari mutasaddilar oldiga turizmni jadal rivojlantirish vazifasini qo‘ydi va bu bo‘yicha tegishli hujjatni imzoladi. Vakolatli organ tashkil etildi. Viza rejimi liberallashtirildi. Ayni paytda 90 mamlakat fuqarosi O‘zbekistonga vizasiz kela oladi, yana 60 davlat aholisi uni internet orqali olish imkoniyatiga ega. Turizmni rivojlantirishga qaratilayotgan e‘tiborni jahon hamjamiyati e‘tirof etmoqda. Sohani qo‘llab-quvvatlashga doir 90 dan ortiq normativ-

¹ O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI PREZIDENTI SHAVKAT MIRZIYOYEVNING IQTISODIY HAMKORLIK TASHKILOTINING 16-SAMMITIDAGI NUTQI. Yangi O‘zbekiston gazetasi .10.11.2023yil . 234-son.B.2

² O‘zbekiston Respublikasida turizm sohasini rivojlantirish to‘g‘risida”gi O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining Farmoni 2019-yil 13-avgustdagi PF-578-son.

³ Axmadjanova M. O‘ZBEKISTONDA TURIZMNING IJTIMOIIY-IQTISODIY SALOHIYATINI RIVOJLANTIRISH ISTIQBOLLARI. O‘ZBEKISTONDA FANLARARO INNOVATSIYALAR VA ILMIY TADQIQOTLAR JURNALI . 12-SON 19.10.2022.B.11

⁴ Исмагуллаев, Ф. О. (2020). Развитие международных связей Узбекистана в области туризма. Актуальные научные исследования в современном мире, (4-8), 139-143.

⁵. <https://eadaily.com/ru/news/2021/11/08/> Joriy yilning to‘qqiz oyida O‘zbekistonga milliondan ortiq kishi tashrif buyurdi xorijiy sayyohlar (kirish sanasi: 07.05.2022)

huquqiy hujjatning qabul qilingani mamlakatimizda sohaning yo‘nalishlarini diversifikatsiya qilish, O‘zbekistonning xalqaro maydondagi jozibadorligini oshirishga xizmat qilyapti. Bu yil yurtimizda Jahon turizm tashkiloti Bosh assambleyasi yig‘ilishi o‘tkazilishi, Samarqand 2023- yilda Jahon turizm poytaxti ¹ deb tanlangani ham shundan dalolat beradi. Bugungi kunda rivojlangan mamlakatlarning iqtisodiy drayveriga aylangan, ammo o‘ziga xavfsiz makon izlaydigan turizm sohasida 140 dan ortiq davlat ishtirokida Jahon turizm tashkiloti Bosh Assambleyasining Samarqandda bo‘lib o‘tgan sessiyasi² mintaqamiz sayyohlik salohiyatini yanada oshirganini jahon hamjamiyati yuqori baholagani e‘tirof etildi. Yurtimizda YUNESKOning Jahon merosi ro‘yxatiga kirgan 90 ga yaqin yodgorlik bo‘lib, yiliga 80 million sayyoh tashrif buyurishiga erishish orqali katta iqtisodiy natijalarni qo‘lga kiritish mumkin. 2000 yildan boshlab, Respublikamiz turizmi yuqori sur‘atlar bilan rivojlana boshladi. Turizmdan olinayotgan daromadlar yiliga 30 va undan ortiq foizlarda o‘sdi. 2001 yil oxirida Afg‘onistondagi tolibonlarga qarshi harakatlarining boshlanishi o‘lkamizga kelayotgan turistlar oqimini ikki yil davomida ancha kamaytirib yuborganidan so‘ng, 2003 yilning 2-yarmiga kelib o‘lkamiz turizmi yana o‘zini o‘nglab oldi³.

Turkmaniston prezidenti Serdar Berdimuhamedovning 2022-yil 14-iyul kuni O‘zbekistonga davlat tashrifi davomida O‘zbekiston Respublikasi Hukumati va Turkmaniston Hukumati o‘rtasida turizm sohasida hamkorlik to‘g‘risida bitim imzolandi⁴. Mazkur bitim kuchga kirgan kundan boshlab bundan avvalgilari, ya‘ni 1996-yil 16-yanvardagi O‘zbekiston Respublikasi Hukumati va Turkmaniston Hukumati o‘rtasida turizm sohasida hamkorlik to‘g‘risida bitim va 2009-yil 25-fevraldagi O‘zbekiston Respublikasi «O‘zbekturizm» milliy kompaniyasi va Turkmaniston turizm va sport bo‘yicha davlat qo‘mitasi o‘rtasida turizm sohasida

¹ Abdulaziz G‘ va B. To‘rayevning “Sayyohlik sohasida startap g‘oyalar” nomli maqolasi “Yangi O‘zbekiston” gazetasi 2023-yil 20-may sonida

² Иқтисодийёт фанлари доктори, профессор АБДУРАХМОНОВА. Г. ХАМКОРЛИҚДА ИҚТИСОДИЙ БАҲҚАРОРҚИК ВА ТАРА ҚҚИЁТ САРИ “Янги Ўзбекистон” ва “Правда Востока” газетаси. 2023 йил 14 ноябрь, 236-сон Б.4

³ O‘zbekistonda turizmning mohiyati. <https://infinitiuz.blogspot.com>. 16.05.2014

⁴ <https://uzbektourism.uz/> O‘zbekiston-Turkmaniston: Turizm sohasida hamkorlik to‘g‘risidagi bitim imzolandi. 15.07.2022

hamkorlik to'g'risidagi bitim o'z kuchini yo'qotadi. Hujjatda tomonlar "Buyuk Ipak yo'li", "Bir sayohat - butun mintaqa" va boshqa qo'shma turistik marshrutlar hamda brendlarni ilgari surishga qaratilgan xalqaro konferensiyalar, forumlar, seminarlar va ko'rgazmalar tashkil etish hamda ommaviy axborot vositalarida nashrlar chop etish belgilangan. Bitim ommaviy axborot vositalarida reklama kompaniyalarini o'tkazish, tanishtiruv sayohatlari va kadrlar tayyorlash va qayta tayyorlash hamda turizm sohasi vakillari uchun malaka oshirishlarni tashkil etish, ma'lumotlar almashinish, mavjud kombi (qo'shma) turistik yo'nalishlarni yanada rivojlantirish va yangilarini ishlab chiqish, shuningdek, transchegaraviy turistik almashinuvni rivojlantirish bo'yicha kelishilgan chora-tadbirlarni amalga oshirishga qaratilgan. Respublikamiz iqtisodiyotida turizmni strategik darajaga ko'tarish, ichki turizm xizmatlarini diversifikatsiya qilish va hajmini keskin ko'paytirish muhim vazifalardandir. Sohada taqdim etilayotgan turizm xizmatlari sifatini yaxshilash va jahon bozorlarida raqobatbardoshligini oshirish, turizm sohasida faoliyat yuritayotgan tadbirkorlik sub'ektlari uchun qo'shimcha imkoniyatlar yaratish, zamonaviy xizmatlar infratuzilmasini jadal rivojlantirish muhim ahamiyat kasb etadi. Ana shularni inobatga olgan holda Turizm qo'mitasi tomonidan Turizmni qo'llab-quvvatlash jamg'armasi mablag'lari asosida bir qator maqsadli ishlar amalga oshirilmoqda. Xususan, joriy yilning ortda qolgan davri mobaynida mamlakat turizmi salohiyatini xorijda keng targ'ib etish va ichki turizm oqimini oshirish maqsadida xorijiy va mahalliy telekompaniyalar va internet platformalari bilan hamkorlikda qator loyihalarga qo'l urildi.

Jumladan, dunyo bo'ylab umumiy auditoriyasi 2,5 mlrd.dan ortiq bo'lgan Britaniyaning "BBC", Yevropaning "Euronews", AQSHning "Amadeus" raqamli onlayn platformasi va Xitoyning "Trip.com" yirik onlayn-sayohat platformasi¹ bilan qo'shma loyihalar amalga oshirilmoqda. Shuningdek, Birlashgan Arab Amirliklarining "Holiday factory" sayyohlik kompaniyasi va "Visa Facilitation Services Global" ma'muriyati bilan, shuningdek, "Numa GmbH" kompaniyasi bilan O'zbekistonning turizm salohiyati va jozibadorligini markaziy Yevropaning uch davlati Germaniya,

¹ <https://uza.uz/oz/posts/turizm> mamlakat iqtisodiyotining muhim tayanchi. 24.10.2023

Avstriya va Shveysariyaga tegishli sayyohlik yoʻnalishi sifatida targʻib qilish, “Lonely Planet” xalqaro nashriyot kompaniyasi tomonidan “Best in Travel 2024” loyihasi orqali Oʻzbekistonda turizm sohasini yanada rivojlantirish va turizm salohiyatini keng targʻib qilish, “EVERCOM¹” xizmatidan foydalangan xolda Ispaniyadagi turizm sohasidagi professional xaridorlarni jalb qilish, Rossiya turoperatorlari uyushmasining raqamli onlayn platformasi orqali har oy maqolalar va bannerlarni ishlab chiqish va Oʻzbekistonning turizm salohiyati va jozibadorligini targʻib qilishga doir loyihalar amalga oshirish yuzasidan kelishuvga erishildi. 2023 yilda elchixonalarimizning loyihalari uchun ajratilgan 20 milliard soʻm mablagʻlari doirasida PR kampaniyalar ham oʻtkazilmoqda. Mazkur dastur doirasida Oʻzbekistonning xorijdagi 34 ta diplomatik vakolatxonalari tomonidan 196 ta loyiha amalga oshirilmoqda. Respublikaning turistik salohiyatini targʻib qilish va turistlar oqimini yanada oshirish maqsadida Oʻzbekiston Respublikasining 28 ta xorijiy davlatlardagi diplomatik vakolatxonalariga mablagʻ ajratildi.

Bundan tashqari joriy yilning 10 oyi davomida 16 ta xalqaro turizm yarmarkalarida milliy turizm stendi va tadbirkorlik subʼektlari ishtiroki taʼminlandi².

Shavkat Mirziyoyev 2023-yil 16-oktabr kuni Samarqandda Butunjahon turizm tashkiloti (UNWTO) Bosh Assambleyasining 25-sessiyasini oʻtkazish doirasida mamlakatda boʻlib turgan BMT tizimidagi mazkur tuzilma bosh kotibi Zurab Pololikashvilini [qabul qildi](#)³. Unda Oʻzbekiston turizm salohiyatini oshirish boʻyicha BMTning ixtisoslashtirilgan instituti bilan koʻp qirrali hamkorlikni yanada kengaytirish masalalari koʻrib chiqildi. Turizm tarmogʻini isloh qilishda Oʻzbekistonning strategik hamkoriga aylangan UNWTO bilan yuqori darajaga erishilgani bilan qayd etildi. Turizm sohasidagi koʻplab xalqaro ekspertlarning fikricha, Oʻzbekistonda koʻp yillardan buyon, ayniqsa, turizmning yangi turlarini diversifikatsiya qilish, xususan, ziyoratni turizmini rivojlantirish borasida ulkan

¹ Ismatullaev, F. (2010). International cooperation in the field of tourism. F Ismatullaev. Society and Management N, 2.

² Juraqulova, F. (2023). EFFORTS TO INCREASE THE TOURISM POTENTIAL OF SAMARKAND CITY. SCHOLAR, 1(33), 209-212.

³ Shavkat Mirziyoyev Butunjahon turizm tashkiloti bosh kotibini qabul qildi: <https://www.spot.uz/oz/unwto-tourism> 16.10.2023

islohotlar amalga oshirilmoqda, bu esa, o‘z navbatida, Global Muslim Travel Index 2019 reytingida musulmonlar uchun jozibador bo‘lgan eng yaxshi -10 mamlakat qatoriga O‘zbekistonni ham o‘z ichiga qamrab olishga xizmat qilgan¹.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YHATI

1. Selimanova S., Tursunova S. Respublikada turizm sohasini ma‘muriy-huquqiy tartibga solish. O‘zbekiston // Jamiyat va innovatsiyalar. – Toshkent, 2021
2. Исматуллаев, Ф. О. (2020). Развитие международных связей Узбекистана в области туризма. Актуальные научные исследования в современном мире, (4-8), 139-143.
3. Ismatullaev, F. (2010). International cooperation in the field of tourism. F Ismatullaev. Society and Management N, 2.
4. Juraqulova, F. (2023). EFFORTS TO INCREASE THE TOURISM POTENTIAL OF SAMARKAND CITY. SCHOLAR, 1(33), 209-212.
5. Abdulaziz G‘ va B. To‘rayevning “Sayyohlik sohasida startup g‘oyalar” nomli maqolasi “Yangi O‘zbekiston” gazetasi 2023-yil 20-may sonida
6. иқтисодиёт фанлари доктори, профессор АБДУРАҲМОНОВА. Г. ХАМКОРЛИҚДА ИҚТИСОДИЙ БАРҚАРОРКИК ВА ТАРА ҚҚИЁТ САРИ “Янги Ўзбекистон” ва “Правда Востока” газетаси. 2023 йил 14 ноябрь, 236-сон Б.4
7. O‘zbekistonda turizmning mohiyati. <https://infinitiuz.blogspot.com>. 16.05.2014
8. <https://uzbektourism.uz/O‘zbekiston-Turkmaniston: Turizm sohasida hamkorlik to‘g‘risidagi bitim imzolandi. 15.07. 2022>

¹ [Samarqand UNWTO Bosh Assambleyasining 25-sessiyasiga nomzod sifatida ko‘rsatildi.](https://uzbekistan.travel/uz)
<https://uzbekistan.travel/uz> 08.11.2021